

**Sulhonberdiyeva Shodiya Shuhrat qizi**

*TMI bank ishi fakulteti 1 bosqich talabasi*

Abdulla Qahhor yangi milliy adabiyotimizning ikkinchi avlodi sanalmish Oybek, G. G'ulom, H. Olimjon, Mirtemirlar safida turib ijod etdi. Safdoshlari kabi A. Qahorning qizg'in ijodiy faoliyati XX asrning eng fojiali paytida, mudhish 30-50-yillar sharoitida, mustabid yakkahokim mafkura, sovet adabiy siyosati ta'siri va tazyiqi ostida kechdi. Bu hol yozuvchining ijodiy taqdirida talay noxush asoratlari qoldirdi. Ayni paytda Alloh bergan benazir iste'dod, noyob shaxsiy fazilatlar-o'ziga xos o'tkir nigoh, fuqarolik tuyg'usi, qat'iyat, iroda-bardosh, haqgo'ylik, halollik va shijoat tufayli zamonasi talotumlaridan yuqori ko'tarila oldi. Adibning dilbar hikoyalari unga katta shuhrat keltirdi. «Sinchalak», «O'tmishdan ertaklar» qissalari, «Sarob», «Qo'shchinor chiroqlari» romanlari, «Shohi so'zana», «Tobutdan tovush» komediyalari, o'nlab o'tkir publitsistik chiqishlari, adabiy-tanqidiy maqolalari, zargarona tarjimalari asr adabiyoti, ma'naviy-madaniy hayoti tarixida yorqin va o'chmas iz qoldirdi.

**Adibning hayot va ijod yo'li.** Adibning tarjimai holida va boshqa shaxsiy hujjatlarida qayd etilishicha, Abdulla Qahhor 1907-yilning kuzida, chorshanba kuni 17-sentabrda Qo'qonning Ko'mir bozori mahallasida tug'ilgan.

Adibning bolaligi Qo'qon shahri va uning atrofidagi qishloqlarda o'tgan. Otasi Abduqahhor Tojikistonning Asht qishlog'idan bo'lib, asr boshlarida akasi usta Abdurahmonga ergashib Qo'qon shahriga ko'chib kelgan, ota kasbi temirchilik bilan shug'ullangan. Abduqahhor mustaqil oila tebratish ilinjida bo'lsa kerak, shaharni tark etib, bir necha yillar qishloqma-qishloq ko'chib yurgan. Onasi Rohatoy Abdulladan oldin va keyin tuqqan sakkiz bolasini qora yer bag'riga berib, yurak oldirib qo'ygani uchun bu o'g'lini yer-u ko'kka ishonmay, ko'z o'ngidan bir qadam ham jildirgani qo'ymay, avaylab o'stirdi. Biroq oilaning bu yolg'iz farzandi ko'z ochib, esini tanib, turmushning hadsiz xo'rlik, shafqatsizliklarini ko'radi. Ayniqsa, darbadar, ko'chmanchi hayot, tahqir-u nadomatlar go'dak ko'ngliga og'ir botadi. «Bir qishloqda bolalarga endi qo'shilib, o'rtoq orttirganimda, boshqa qishloqqa ko'chib, yana «ko'chmanching bolasi» bo'lib qolar edim. Bu gaplar qattiq haqorat yo'sinida aytilar edi», -deb eslaydi adib tarjimai holida. «Bir kuni kechqurun mahalla bolalari ilonni ko'rgan chumchuqday atrofimda chug'urlashib turganda, kuzatib turgan bir mo'ysafid menga rahm qilgan bo'lib: «Qo'yinglar, bolalar, tegmanglar, kelgindi bo'lsa o'zi bo'libdimi, xudo qilgan», -dedi. Mo'ysafidning bu gapi menga bolalarning ta'nasidan ham qattiqroq tegdi, uzoq yillar dilimda cho'kib yotdi. Bunaqa ta'na-dashnomlar meni battar «soqov» qilar edi». Bu murg'ak ozordiyda qalb endi «indamas» degan ta'nadan qutulish uchun odamlardan, hatto o'z ayasidan ham mumkin qadar qochadigan bo'lib qoladi. Faqat shulargina emas. Qo'li qisqalik, yo'qchilik tufayli oilada yuz beradigan dilsiyohliklar, odam bolasi dosh berishi mumkin bo'lmagan nochor turmush sharoitlari, qo'ni-qo'shnilar, odamlar

orasidagi dag'al, beshafqat munosabatlar, yurtda avj olgan jaholat, uning har qadamdagi ham kulgili, ham mudhish oqibatlari, biri biridan ayanchli, fojeaviy sarguzashtlar, Abdulla dunyoga kelib ana shunday muhit, sharoitda esini tanidi. «O'tmishdan, ertaklar»da yozuvchi o'sha bolalik yillari manzarasi mohiyatini «kunlar g'urbat bilan boshlanib, g'urbat bilan tugardi» degan birgina jumlada juda yorqin, ta'sirchan ochib bergan. Ayni shu g'urbatga to'la darbadar va mungli hayot taassurotlari murg'ak Abdulla ko'nglida ilk bor o'ziga xos mungli qo'shiqqa aylanadi, aniqrog'i ko'nglidagi hasratlar qo'shiq bo'lib otilib chiqadi. Yozuvchining e'tirof etishicha, uning ilk bor ko'nglida tug'ilgan qo'shig'i-«ijodi» ayni shu mungli kechinmalar haqidadir. Demak, mana shu shafqatsiz hayot Abdullani yozuvchi bo'lib yetishuvida muhim omil rolini o'tadi. Keyinchalik u qo'lga qalam olganda bot-bot bolalik xotiralariga murojaat etishi, o'tmish haqidagi asarlarning malomatlar, g'am-g'ussalar bilan yo'g'rilganligi sababi shunda.

Abdulla xarakterining shakllanishida otasining ta'siri katta bo'lgan. Usta Abduqahhor qo'li qisqa bo'lishiga, darbadar hayot kechirishiga qaramay o'ziga xos mag'rur, nazari to'q, insonlik sha'nini baland tutadigan savodli, tadbirkor odam edi; «dadam birovning qo'lidan bitta yong'oq ham oldirmay o'stirgan» deb yozadi adib mamnuniyat bilan. Abdullaga ilk savodni otasi bergan, kitobga havasni ham otasi uyg'otgan. Adibning eslashicha, otasi kitobga nihoyatda ishqiboz bo'lib, deyarli har kuni ishdan keyin uydagilarga qiziq kitoblar-har xil jangnomalar, «Dalli va Muxtor», «Bahori donish», «Bobo Ravshan» kabi asarlarni o'qib bergan. Abdulla muayyan muddat eskicha usuldagi maktabda o'qiydi, xat taniydi, so'ng Oqqo'rg'onda Muhammadjon qori degan ochiq fikrli odamning yangicha usuldagi (usuli jadidiya) maktabida o'qishni davom ettiradi. «Qur'oni Karim»ni «Taborak» surasigacha yod oladi. Jadid ma'rifatchilarining darsliklaridan ta'lim oladi, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Tavallo, So'fizoda, Sidqiy adabiyotlari bilan tanishadi. O'sha jadid muallimi Muhammadjon qori yozuvchi shaxsiy hayotida chuqur iz qoldirgan, adib bir umr u kishi bilan iliq munosabatda bo'ladi, «O'tmishdan ertaklar»ning eng nurli bobini shu odamga bag'ishlaydi.

Bu orada o'lkada inqilobiy alg'ov-dalg'ovlar boshlanib ketadi. Oilaning ko'chmanchidarbadar hayoti barham topadi. Abdulla dastlab sho'ro maktabi «Istiqbol»da, undan keyin internatda, so'ng «Kommuna maktabi»da o'qiydi; o'zbek bilim yurtining «Namunatadbiqot» maktabida, nihoyat bilim yurtining o'zida o'qishini davom ettiradi. 1925-yili Toshkentga «Qizil O'zbekiston» gazetasiga ishga taklif etiladi. «Norin shilpiq», «Mavlon Kufur», «Gulyor», «Erkaboy», «E-hoy» imzolari bilan matbuotda qatnashadi. Bilim olishga bo'lgan ishtiyoq uni O'rta Osiyo Davlat universitetining ishchilar fakultetiga boshladi. Bu yerda u rus tilini o'rgandi, adabiyot dunyosi bilan yaqindan tanisha boshladi, ayniqsa, Gogol, Turgenev, Chexov asarlari uni o'ziga maftun etdi. Yosh yozuvchi ularga ergashib asarlar yozishga urindi.

1934-yili yozib tugatgan «Sarob» romani uni chinakamiga elga-jamoatchilikka yetuk yozuvchi sifatida tanitdi. Roman respublika konkursida mukofotlandi. So'ng u mashhur hikoyanavis sifatida shuhrat qozondi. Jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi

namunalari bilan bir qatorda turuvchi hikoyalar, deb baho olgan “Anor”, “O’g’ri”, “Bemor”, “Adabiyot muallimi”, “San’atkor” kabi asarlari maydonga keldi.

Hikoya janrida qalamini qayrab yurgan yozuvchi yana yirik janrga qo’l urdi. «Sarob»dagi kabi hayot oqimidan chetda turgan kimsa-bu yerda endi ziyoli emas, batrak dehqonning boshdan kechirganlarini tasvir qilmoqchi bo’ladi. «Qo’shchinor» nomi bilan atalgan bu romanlar o’sha davr adabiy qoliplariga mos kelmagani uchun jiddiy tanqidga uchraydi; muallif asarni qayta ishlashga majbur bo’ladi. «Qo’shchinor chiroqlari» nomi bilan chiqqan roman, tanqidni xush qabul qilgan bolsa ham, ta’bimdagi kitob emas», «o’zimga bog’liq bo’lmagan sabablar bilan maqsadimga yetolmadim», deydi adib.

Qahhorning Stalin vafotidan keyingi o’n yildan ortiqroq hayoti va ijodiy faoliyati g’oyat sermahsul va samarador bo’ldi. Shaxsga sig’inish, mustabid siyosatning tanqid ostiga olinishi, mamlakatda qisman demokratiyaga yo’l berilishi tufayli Abdulla Qahhor o’zini erkin his eta boshladi. O’zbek xalqining, xususan, millat ko’pchiligini tashkil etgan paxtakor dehqonning nochor ahvoli, paxta dalalarida odamlarning qiynalayotgani, ayollarning mayib bo’layotgani, bolalarning bilimsiz bo’lib o’sayotgani haqida bong uradi. Ruslashtirish siyosatining noxush oqibatlarini -ko’pgina oilalarda bolalar o’z ona tilini mutlaqo bilmasligi», bu hol «ota-onani zarracha ham tashvishga solmayotgani», «ba’zi bir oilalarda bola o’z ona tilida gapirgani nomus qilayotgani», shu narsa «internatsionalizm»-deb atalayotgani haqida 60-yillarda dangal gapirish-bu hazilakam ish emas edi. El-yurt, millat, milliy adabiyot, ona tilining sofligi yo’lidagi jonbozliklari, adabiyotidagi soxtalikka qarshi chiqishlari, bu borada yozuvchilikka da’vogar eng yuksak martabadagi shaxslarni ham ayamasligi-chindan-da katta jasorat edi.

Abdulla Qahhor bu yillarda badiiy ijodda ham o’zgalarga ibrat bo’larli faoliyat ko’rsatdi. 1956-yili «Ming bir jon», «To’yda aza» hikoyalari bosildi, so’ng birin-ketin „Dahshat», «Mahalla», «Nurli cho’qqilar» e’lon etildi. Bular milliy hikoyachiligimiz rivojiga o’zgacha ruh yangi to’lqin olib kirdi. Adibning 1958-yilda tugatgan «Sinchalak» qissasi katta dovrug qozondi. 1962-yili «Tobutdan tovush» satirik komediyasi, 1965-yili «O’tmishdan ertaklar» avtobiografik asari maydonga keldi. Adib ulug’ maqsadlarni diliga jo etib katta g’ayrat bilan ijodiy ishlarini davom ettirayotgan bir pallada og’ir xastalikka-qorason kasaliga uchradi, so’ng unga yurak xastaligi qo’shildi. Abdulla Qahhor 1968-yil 25-mayda Moskvadagi kasalxonada vafot etdi. «Muhabbat» qissasi, tugallanmay qolgan «Zilzila» asari vafotidan keyin e’lon etildi.

### **Abdulla Qahhor hikoyalari**

**Abdulla Qahhor-mohir hikoyanavis.** Zamonaviy o’zbek hikoyachiligining rivojida Qahhorning o’rni, hissasi nihoyatda katta. XX asr yangi o’zbek adabiyotida realistik hikoya janrining shakllanishi va rivoji, avvalo, shu adibning nomi bilan bog’liq. To’g’ri, Qahhorga qadar ham ayrim yaxshi hikoyalar yozilgan. A. Qodiriyning «Uloqda», Cho’lponning «Oydin kechalarda», «Qor qo’ynida lola», «Novvoy qiz» asarlari o’zbek adabiyotida realistik hikoyalar yaratish yo’lidagi dadil intilishlar bo’lgan edi. Qahhor ana shu tajribalarga tayanib, o’zbek hikoyachiligini zamonaviy jahon hikoyachiligi darajasiga ko’tardi va o’zbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi. «Abdulla

Qahhorning shunday hikoyalari borki, ularni jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo'yish mumkin», -deb yozgan edi rus tanqidchisi V. Smirnova.

Abdulla Qahhorning ilhom to'la mahorat bilan yozilgan eng barkamol hikoyalari, xususan, o'tmishdan olib yozilgan novellalari 30-yillarning ikkinchi yarmida maydonga keldi. Bu hikoyalar maydonga kelgan davrda totalitar rejim siyosati, Stalin qatag'onlari, inson haq-huquqlari sha'nini toptash avjiga chiqqan, ko'plab qalamkashlar sho'ro davrini, partiya siyosatini, xalqlar dohiysini sharaflab asarlar bitayotgan bir pallada kechmishga yuz o'girib, zamonning ilg'or kishilari, ijobiy qahramonlari qolib, qandaydir kichik odamlar, qoloq kimsalar hayotidan asarlar yozdi. 30-yillarda Qahhorni kechmish haqida, haq-huquqi, insonlik sha'ni poymol etilayotgan, xo'rlangan, tahqirlangan kichik odamlar, nodon kimsalar haqida yozishga ilhomlantirgan bosh omil aslida adibning zamonasiga bo'lgan munosabatidir. Bunday tamoyil 40-yillarda yozilgan qator asarlarida ham davom etdi.

«Bemor»dagi Sotiboldining boshiga tushgan kulfat-og'ir kasal yotgan xotini dardiga davo izlab yelib-yugurishlari, bu soddadil odamning omonat dalda, maslahatlarga umid bog'lab yanada xarob, nochor holga tushishi; «O'g'ri»dagi jabrdiyda cholning najot kutib mansabdorlar huzurida dovdirab, dildirab turishlari, himmat o'rniga tahqirlanishi, kamsitish-u xo'rlashlarga befarqligi; «O'tmishdan ertaklar»dagi Babarning ro'y bergan falokatlardan gangib, o'zini yo'qotar holga tushishi, o'g'irlikda gumon qilinib, otqorovul yur desa yurib, tur desa turib, o'q uzganda kiprik qoqmay jovdirashi, siyosat uchun do'konga qamab qo'yganida, ochiq turgan eshikdan chiqib ketmay, qish sovug'ida tarashadek qotishi-mana shunday jabrdiyda, mute, nochor, xo'rlangan odamlar qismati bilan tanishganda, bir tomondan, ular holiga behad achinasiz. Shaxs erki, huquqi, mutelik, qullik psixologiyasi ifodasi, talqini bobida XX asr adabiyotida Cho'lpon an'alarini eng izchil davom ettirgan adib ayni shu Qahhorning o'zidir. Qahhorning yuqorida tilga olingan asarlari, obrazlari xuddi Cho'lpondagi kabi mustabid tuzum sharoitida inson haq-huquqining poymol etilishiga qarshi o'ziga xos isyondir.

Qahhor hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqea, real hayotning bir bo'laki, epizodi bo'lib gavdalanadi; hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Biroq ular hayotning aynan nusxasi emas. «Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, dunyoda bundan oson ish bo'lmas edi, -deydi adib. Hayotdan aynan ko'chirish kitobdan ko'chirishday gap. Nusxa nusxa bo'lib qolaveradi. Bunday narsalardan originallik kutib bo'lmaydi. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, uni his qilish, unga o'ylab yurgan gaplarni singdirish, tilaklaringni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi». Zotan, yozuvchi hikoyalaridagi hayotiylik, ishontirish kuchi, siri ana shunda. Bundan ham muhimi, yozuvchining o'sha hayot hodisalarini o'ziga xos tarzda badiiy idrok etishi, mag'zini chaqib, ulardan xilma-xil original va teran ma'nolar topishi-kashf etishi hikoyalariga o'ziga xos joziba baxsh etgan.

Birgina misol. «Bemor»da tasvirlagan voqeaga o'xshash voqeani yozuvchi bolaligida o'z boshidan kechirgan. «Biz Qo'qonga yaqin Yaypan qishlog'ida turar edik, -deya eslaydi adib.-Onam g'ira-shira qorong'i uyda to'lg'oq tutib yotar, ichkarida ingragan, dodlagan tovushi eshitilar edi. Yaypan katta qishloq, lekin u vaqtda doktor, tibbiy yordam degan gaplar birovning tushiga ham kirgan emas. Bunday kezlarda qo'ni-qo'shnildan biror keksa ayol chaqirilar edi. Uning tajribali momo bo'lishi shart emas, qariligining o'zi kifoya edi. Biz Yaypanga yaqinda ko'chib kelgan, u yerda qarindosh-urug'larimiz yo'q edi, shu sababli dadam qo'shni bir kampirni chaqirib chiqdi. Kampir ayam yotgan uyga kirib ketdi. Dadam ikkovimiz hovlida o'tirdik... Qorong'i tushdi. Meni uyqu bosa boshladi.

Yonimda o'tirgan dadam birdan o'rnidan turdi. Ko'zimni ochdim. Tepamda boyagi qo'shni kampir turar edi.

- Qalay?- dedi dadam hovliqib.

-Qiynalyapti bechora, - dedi kampir va biroz jim turgandan keyin menga ishora qildi, - bolaga ayting, ayasini duo qilsin, go'dakning duosi ijobat bo'ladi.

Dadam engashib mening qulog'imga shivirladi:

- Xudoyo ayamga najot bergin, degin! Ayt!

Dadam qo'rquv va jahl aralash meni qistar edi. Duo qila boshladim. Bu orada bir-ikki yig'lab ham oldim. Keyin uxlab qoldim. Ertalab uyg'onsam ayamning ko'zi yoribdi».

Bu voqea «Bemor»ga asos bo'lgan. Lekin muallif voqeani hikoyaga aylantirishda unga qator jiddiy o'zgartirishlar kiritgan. Hikoyada tasvirlanishicha, Sotiboldining xotini og'rib qoladi. Sotiboldi qurbi yetgan chora-tadbirlarning hammasini qiladi: domlaga o'qitadi, tabibga qaratadi, baxshiga, kinnachiga ko'rsatadi, bulardan hech narsa chiqmaydi. Doktorga qaratish uchun esa qurbi yetmaydi. Vaziyat yanada keskinlashadi, bemor bora-bora og'irlashadi, Sotiboldi esa najot qidirishda davom etadi, Bahouddinga narsa ko'taradi, «ko'ngilga armon bo'lmasin» deb chilyosin qildiradi, hatto qo'shni kampirning «begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi» degan maslahatiga amal qilib, har kuni saharda to'rt yashar qizchasini uyg'otadi va uyqu g'ashligi bilan yig'lab turgan qizchasiga duo o'qitib, uni takrorlashga majbur etadi. Voqea xotimasi juda ayanchli-bemor o'ladi. Sotiboldi o'lik yonidan olayotganda qizcha uyg'onadi va ko'zini ochmasdan odatdagicha «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin», deb duo qiladi.

Qahhor tabiati, iste'dod yo'nalishi jihatidan hayotdagi, odamlar qismatidagi fojeylikni teran his etadigan adibdir. Uning eng yetuk hikoyalari ayni fojiali holat, qismatlar ifodalangan asarlardir. Hikoyalaridagi qahramonlar, hayotdan olingan epizodlar, lavhalar garchi muayyan intiho, badiiy yechim bilan yakunlansa-da, bunday yakun galdagi fojialar, ko'rguliklarning debochasi vazifasini o'taydi. «Bemor»dagi Sotiboldi xotining o'limi, uyqu aralash ayasining dardiga davo tilagan qizaloq va xotini dardiga davo qidirib bor-budidan judo bo'lgan erning yangidan yangi sarson-sargardonliklari ibtidosidir. Sizga oldindan tanish "O'g'ri"-dagi cholning najot izlab mansab-martabaning turli zinapoyalarida turgan yulg'ichlarga duch kelib, shilinib oxirida «najot» topishi -Egamberdi paxtafurushning «himmati»ga sazovor bo'lishi, bu himmat esa kelgusida yuz berajak avvalgilardan-da og'irroq talonchilikning o'zginasidir. «Dahshat»

hikoyasida «tiriklar go'ristoni» Olimbek dodxoh xonadonidan qutulish yo'lidagi mislsiz jasorati qahramonning halokati bilan tugaydi, biroq qahramon o'limi dodxoh xonadonini izdan chiqaradi, talotumlarga giriftor etadi.

«Adabiyot muallimi» hikoyasi bosh personaji Boqijon Baqoyev nodon, o'ta madaniyatsiz bir kimsa. Hikoyada yozuvchi biron o'rinda uni nodon, madaniyatsiz deb atamaydi, oshkora qoralamaydi. Personaj o'zining nodon, madaniyatsizligini har qadamda xatti-harakatlari, fikrlash tarzi, gap-so'zlari orqali o'zi fosh etadi. Nafis, ya'ni badiiy adabiyot muallimi bo'la turib jiyani, talaba Hamidaning Chexov va uning «Uyqu istagi» hikoyasi haqidagi oddiy savollariga tayinli javob berolmaydi, aslida u javob berishga qodir emas. Bu odamning fojiasi shundaki, aybini tan olgisi kelmaydi, o'zini har bop bilan bilimdon qilib ko'rsatishga urinadi, aravani quruq olib qochadi: uning xayolida, tilida bir-biriga qovushmagan nomlar, har xil atamalar, ilmiy tushunchalar... Uning fikrlash yo'sini gap-so'zlarida aniqlik, izchillik yo'q, duch kelgan tomonga o'tib ketaveradi. Yozuvchi hikoyani yakunlar ekan, savol beruvchi talaba qizning «g'uvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi», deb yozadi: «praktikum, minimum, maksimum, Deterding, Stending, Shelling, Mering, Demping...»

Shu tariqa ko'z oldingizda nodon, notayin odamning nihoyatda aniq hajviy qiyofasi, ichki dunyosi, qolaversa ma'nisiz fojiali hayoti namoyon bo'ladi.

**A.Qahhor adabiyotshunoslar xotirasida.** Abdulla Qahhor talabchan, maqtovg'a xasis hamda yetuk ustoz ham bo'lgan. Adib juda ham aqlli bo'lgan, shogirdlaridan o'z fikrlarini hech qachon ayamagan. Ularga to'g'ri yo'nalish, to'g'ri yo'lni mohirona ko'rsata olgan yozuvchidir. Uning shogirdlaridan biri bo'lgan Said Ahmad shunday xotirlaydi:

«U inson mening adabiyot olamiga kirib kelishimga tamal toshlarini qo'ygan inson desam aslo adashmayman. Qahhor aka qattiqqo'l, badjahl ko'rinsa-da, oilasi davrasida, do'stlar davrasida juda hazilkash va ajoyib inson bo'lgan. Bir kuni Kibriyo opa choy quyayotganida choynakni qopqog'i piyolaga «tars» etib tushib ketdi. Shunda Qahhor aka bugun choynakning qopqog'ini chayib choy icharkanmiz-da, deb mutoyiba qilib qoydi.

Qahhor aka xuddi adabiyot uchun tug'ilgandek go'yo, so'zga juda xasis, lekin har bir yozgan kichik hikoyasida ham olam-olam ma'no bor. Tabiatan o'g'ir-bosiq har bir so'zini o'ylab gapiradigan, qilayotgan ishlarini chuqur o'ylab keyin qaror qabul qiladigan inson edi. Men ilk hikoyalarim chiqqan kezlarda uni mensimay salom ham bermay qo'yganimda u inson meni yoniga olib to'g'ri yo'l- yo'riq ko'rsatgan, hikoyalarimni «hech biri haqiqiy hikoyadek emas, umuman hikoyalar bunday yozilmaydi, ma'no-mantiq yo'q bu hikoyalaringizda», deb mening xato va kamchiliklarimni to'g'irlagan inson edi. Menga juda katta yordam bergan. Hatto yashash uchun turar joyimni ham shu inson menga berganlar.»

*Munaqqid, adabiyotshunos Umarali Normatov shunday eslaydi:*

«Ustoz Abdulla Qahhorni bilganlar, suxbatini olganlar yaxshi eslashadi: bu alloma davralarda kam gapirar, gapirganda doim obrazli so'zlar, so'zlari xazil mutoyiba, lutf, kinoya kesatiqlar, keskin istehzo bilan yog'rilgan bolardi. Uning so'zlari oshkora

donishmandlik, pand nasixatlardan holi, biroq hamisha bir muhim bir fikr, xodisalarga yangicha qarashi, obrazlilik bilan esda qolardi. Aslida, Abdulla Qahhor maskaldosh do'st, ustoz, shogird topishda hech qachon adashmagan. 2011 chop etilgan "Abdulla Qahhor arxivi katalogi" da keltirilgan son sanoqsiz dalillar, bu noyob zot odam tanlashdabolaligidanoq nozik did, ziyrak aql farosat bilan ish tutgani buni isboti. Chunonchi, u ilk bor Toshkentga kelganda o'zi uchun ustoz deb bilgan siymolar haqida gap borgandabirinchi galda g'ozini Yunusni, dilga yaqin tanishlardan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Elbek, Oybek, Gayratilarnitilga oladi. U bir umr o'ziga ham, o'zgalarga ham juda talabchan bo'lgan. Adabiy jarayonni mumtazamsinchkovlik bilan kuzatib borgan, adabiyotda yalt etib chiqqan asarni, istedod sohibini oldindan payqagan, ularni qo'llab quvvatlagan. 60-yillari sochiga oq tushgan kezlari mana bu satrlarni keltirgan: "...ahvoling shu bo'lsa, sal kunda yoshlarningoyog'i ostida qolib ketasan. Adabiyotda Shukurlar, O'tkirlar, Uchqunlar paydo bolgan. Shularning oyog'i ostida qolib ketasan! Seni hech kim ko'tara olmaydi, o'zingni o'zing ko'tarasan, unda o'zingga qiyin bo'ladi. Mo'min kofirlar zamoni, adabiyoti qolib ketti, bugun Pirimqullar, Odillar, Said Ahmadlar adabiyoti! Xusniddin Sharipovlar, Erkinlar, Abdulla Oripovlar, Oydin Hojiyevlar adabiyoti! Tanqidida Ozod, Umarali, Qo'shjonovlar bosh ko'targan!».

*Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul adib haqida shunday deydi:*

*Abdulla Qahhor bosib o'tgan hayot yo'li ham, ijod yo'li ham vijdon yo'li edi. U so'nggi kunigacha millat dardi bilan yashadi. Shuning uchun ham unga og'ir bo'lgan. Mamlakatda toza fikrlaydigan odamlar kamayib ketgani, shular ham iqtidorini yangi haqiqat izlashga emas, eskilarni takrorlashga sarfaylaganiga qaramay, Abdulla Qahhor doimo ozod fikr, yangi haqiqatlar uchun kurashgan yolg'izlanish, tanqidu taqiblarni pisand qilmasdan kurashgan. Abdulla Qahhorning ijodiy nafasidan nomardlik, har qanday nomardlik titragan, tubanlik o'zini panaga tortgan. Unga tish qayraganlar esaniqob tortishga majbur bo'lardi. Uning borligi millatning davlati, ham savrati, ham shavkati bo'lgan. Mubolag'asiz shunday!*

A. Qahhor umr yo'ldoshi Kibriyo Qahhorova shunday deydi:

«Abdulla Qahhorning biron kalima so'zini o'rnidan jildirib bolmaydi, hammasi bamisoli ipga tizilgandek. Turgan gap bularning hammasi uzoq mehnatning samarasi. Qayerda bo'lmasin, Abdulla Qahhor minbarda chiqqanda aytadigan so'zlarning zamirida albatta til masalasi yotar edi. Mana chet tillar pedagogika institutining studentlari bilan bo'lgan uchrashuvda so'zlagan nutqidan parcha:

«Men studentlar bilan ko'p uchrashaman. Studentlarning dilkusho suhbatlarida bo'lganman.

Sizlar har qayerdan kelgansizlar. Institutni bitirgandan keyin joylarga borib o'quvchilarga ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini o'rgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar boradigan joylaringga chet tillar bilan birga o'z ona tilimiz o'zbek tilida cheksiz muhabbat tuyg'usini olib boringlar! O'bek tili g'oyat boy, nihoyatda

chiroyli, har qanday fikr va tuyg`uni ifoda qilishga qodirekanini amalda ko`rsatinglar. Qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til ma`daniyatimizning mashali bo`linglar! »»

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ziyonet.uz internet sayti
2. Said Ahmad "Yo'qotganlarim va topganlarim" 1998-yil
3. Kibriyo Qahhorova "Chorak asri hahnafas" 1987-yil
4. 6-sinf adabiyot darsligi
5. 7-sinf adabiyot darsligi
6. Google internet sayti